



YUSUF SARYOMIYNING "EY DO'ST" G'AZALI TAHLILI

Mamasoliyeva Muslimaxon Alisher qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Email: muslimakhonmamasalieva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Saryomiy ijodidagi tasavvufiy mazmun bilan sug'orilgan "Ey do'st" g'azali tahlil etiladi. Har bir baytda shoirning ilohiy ishq yo'lidagi sadoqati, ojizligi va rahmat istovchi yuragi aks etadi. G'azal baytlari orqali bandaning fano, hijron, sabr va visol kabi kechinmalari yoritiladi. Tahlil davomida har bir baytdagi ramziy ifodalar, so'zlar asl mohiyati, tasavvufiy ma'nolari ochib beriladi. Maqola Yusuf Saryomiyning ijodini yaxshiroq o'rghanishga, uning g'azallarining asl mohiyatini ochishiga xizmat qiladi va o'quvchining tasavvuf haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Yusuf Saryomiy, tasavvuf, g'azal, fano, ishq, visol, ramz, tahlil

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy g'azallar alohida o'rin egallaydi. Bu asarlar nafaqat badiiy-estetik go'zalligi bilan, balki ilohiy-ma'rifiy mazmuni bilan ham ahamiyatlidir. Yusuf Saryomiy — XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida ijod qilgan shoir sifatida tasavvufiy g'oyalarni o'z g'azallarida mohirlik bilan aks ettira olgan adibdir. Uning "Ey do'st" g'azali tasavvufiy yondashuv, bandalik, rahmatga intilish, sabr va fano kabi tushunchalarni o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu maqolada g'azal baytlari asosida shoirning ruhiy iztirobi va ilohiy ishqqa bo'lgan sadoqati tahlil qilinadi.

Asosiy qism. G'azalning hajmi umumiy 7 ta bayt 14 misradan iborat bo'lib, ushbu g'azalda Saryomiy ilohiy ishq haqida so'zlaydi, quyida uni bosqichma-bosqich tahlil qilamiz.

Hajringda mani zoru xarob aylama, ey do'st,

Bag'rimni firoqingda kabob aylama, ey do'st

Bu baytda shoir bandalik maqomida turib, iltijoli ohangda Haqqa — ilohiy Mahbubga murojaat qilmoqda. "Ey do'st!" nidosi bu yerda oddiy inson emas, balki Allohnning Zoti, mutlaq jamol egasini anglatadi. Hijron — bu dunyoga qulagan, asl manba'idan — Haqdan ajralgan ruhning sargardonligi, yo'qotilgan visol holatidir. Shoir Haqdan iltijo qiladi: "Meni o'z hijroningda, ayriliqda majruh va xarob holga solma. Bag'rimni — qalbimni — ishq o'tida kuydirma." Bu yolvoruv nafaqat dard, balki ishq yo'lida sabrning halokatli chegarasiga yetgan bandaning nidosidir. Shoir ishq azobidan nolimaydi, lekin Haq rahmatini, iltifotini tilaydi. Keyingi baytda:

Mir'otu yuzung oyinayi diydalarimdin,

Mahjur tutib, ko'zni purob aylama, ey do'st.

Shoirning holati kashf va mushohada darajasiga yetgan bandaning ruhiy holatini aks ettiradi. "Yuzung oyinai diydalarimdin" — ya'ni Sening jamoling mening qalbim oynasida aks etdi, degani. Tasavvufda bu — qalb pokligi orqali Haq tajallisini ko'ra olish holatidir. Bu holatga faqat zuhd, zikr, sabr va muhabbat orqali yetishish mumkin. Ammo keyingi



mistrada shoirdan ma'yuslik seziladi. Endi u: "Meni undan mahrum qilma, qalbim oynasida ko'ringan jamolingni yana berkitma, ko'zimni yoshlarga to'ldirma, Ey Do'st!" — deb yolvoradi. Bu holat — kashfdan so'nggi g'oyiblik, ya'ni "fath"dan so'ngki "satr" — tasavvufiy tajribaning sinovli bosqichidir. Banda Haqni qalbida his etadi, so'ngra Uning o'zini yana yashirishini boshdan kechiradi — bu rahmatning qadrini anglatadigan bir hikmatli sinovdir. Keyingi misralarda shoir o'zining tamoman taslim ekanini bayon etadi:

Lutfayla taki Gardani jon birla kongulg'a,
Juz anbari zulfingni tanob aylama, ey do'st.

Saryomiy — mutlaq taslimlik, ruhan butunlay Haqqa bo'ysungan bir banda sifatida o'zini namoyon qilib etadi, "Garadani jon birla ko'ngul" — ya'ni butun borlig'im, jismim va qalbim bilan sening dargohingga taslim bo'ldim, deya yolvoradi. Bu — fano maqomi, inson o'z "meni"ni yo'qotib, borlig'ini faqat Haqqa bog'lagan holatdir. Shoirning iltimosi chuqur: "Ey do'st, men sendan shunchalik shavq bilan iltijo qilamanki, iltifot qil — ammo sochlaringni, ya'ni sirlaringni menga tanob (arxon) qilma." Bu yerda zulf — Haqning chigal siridir, chigal haqiqatlar, tasavvuf yo'lidagi sinovlar. Ya'ni demoqchiki : "Sen meni o'z sirlaringda adashtirib, arxonlab, bo'g'ma — lutfing ila meni ozod qil." Tasavvufda bu — ishqning ayovsiz sinovlaridan ruhiy ozodlik istovi, ammo bu ozodlik bandalikdan qochish emas, visol sari talpingan sadoqatni ifoda etadi. 4-baytda esa faryodning eng yuqori cho'qqisiga chiqadi:

Xam bo'ldi qadim surgali yuz hoki daring'a,
Keldim bukulub, ma'yusi bob aylama, ey do'st.

Taslim bo'lgan qalbning eng chuqur faryodini shu joyda guvohi bo'lamiz. Shoir o'zini mutlaq ojizlikda, iltijo holatida tasvirlaydi: "Tanam egildi, qalbim bukildi, dargohing oldida tuproqqa yuz qo'ydim." Tasavvufda bu — faqrlik va kamtarlik maqomi, ya'ni banda o'zini butunlay yo'q qiladi, faqat Haq huzurida tuproqqa o'zini teng qiladi. Ammo shoirning istig'fori, faryodi bor: "Ey do'st, bu bukilgan holimda meni eshigingdan rad etma, meni ma'yus — ya'ni quvilgan, rad etilgan holatga solma." deya iltijo qiladi. Bu — nafaqat banda sifatidagi ojiz nido, balki rahmat eshigidan kirishga intilayotgan yurakning so'nggi zo'r berishi. Tasavvufda bu holat: "Haq oldida xok bo'l, balki rahmat nazari tushar" degan haqiqat bilan bog'lanadi. Shoir tuproqqa o'tirgan, egilgan, lekin bir nazar umidida sabr qilmoqda. Keyingi misralarda g'azal kuliminatsion nuqtasidir:

Ushipoqlaring qatlige minganda taqovar,
Ko'z xalqasidin o'zga riqob aylama, et do'st.

Bu baytda shoirning holati — ishq yo'lida jonini fido qilishga tayyor banda obrazida gavdalanadi. "Ushipoqlaring qatlige minaganda takovar" — ya'ni Sen harakat qilganingda, hatto oyoq panjalaring ostida halok bo'lishga tayyorman, degani. Bu — fano darajasi, banda o'z jonini Haq yo'lida qurban qilishga rozi. Bu o'lim — jismoniy emas, balki nafsdan, manmanlikdan, "men"likdan o'limdir. Bu — ishqning eng yuqori darajasidir. "Ko'z halqasidin o'zga rikob aylama" — bu esa ko'z yoshlardan tashkil topgan halqani mahbubning rikobi (egarga oyoq qo'yadigan halqa) qil, degan istak. Ya'ni: "Ey do'st, senga



bog‘lanishim uchun mendan faqat ko‘z yoshimni talab qil, men boshqa hech narsaga loyiq emasman.” Bu — iltijo, fidoiylik va bandaning o‘zini butunlay ojiz bilib, rahmatga umid qilib yashashini nazarda tutmoqda.

Ko‘p xoknishin roxi g‘amingda o‘tirurlar,
Sol bir nazari,muncha shitob aylama,et do‘st

Bu bayt — ishq yo‘lida intazorlik, sabr, va sadoqatda toblangan bandalarning holatini ifodalaydi.” Ko‘b xoknishin...” — ya’ni: “Sen yo‘lingda tuproqqa cho‘kkan, umid bilan o‘tirgan bandalardan ko‘pi bor.” Tasavvufda xoknishinlar — bu faqr, sabr, va kamtarlikni tanlagan Haq yo‘lovchilaridir. Ular — nafaqat o‘z manfaatini emas, balki visolning o‘zini istagan qalblardir. Shoir ularning nomidan nido qiladi: “Ey Do‘st! Shunchalik shoshilma, yonimizdan o‘tib ketma! Hech bo‘lmasa biz tomonga bir nazar sol!” Bu bayt — rahmat nidosidir. “Nazari ilohiy” — Haqning qalbga tushgan nuri, rahmati, Uning bir lahza mehrli qarashi — bu banda uchun butun umrga yetadigan najotdir. Shoir yolvoradi: “Nazaringni bizdan darig‘ tutma, bizni unutma, g‘am yo‘lida senga sadoqatimizni isbot qildik.” Bu — umid baytidir, najot istovchi, visol orzusidagi bandalarning ohangidir.

Kel to‘bi qadu hur jamolu labi kavsar,
Yusufni firoqingda azob aylama,ey do‘st.

G‘azalning maqtasida shoirning iltijosi — shunchaki so‘z emas, bu visolga zor qalbning so‘nggi najot istovi.“ Kel to‘bi qadu hur jamolu labi Kavsar” — bu satrda Mahbub, ya’ni Haqning jamoliga da’vat bor. Shoir: “Ey do‘st, sening jamoling hurlarning jamolidan ham go‘zal, sening labi — Kavsar shirinligidek, iltimos, yaqin kel!” Tasavvufda bu — jamolini istash darajasidir, ya’ni Haqning faqat zotini emas, jamolini ko‘rishga yetgan qalb holati.“ Yusufni firoqingda azob aylama” — bu esa eng chuqur iltijo: “Meni dardmand, visoldan ayrilgan banda sifatida ko‘r. Hijroningda azob ichra tashlab qo‘yma, yuragim ishq ila azobda”. Ey Haq, meni tark etma.” Tasavvufda esa fano bosqichining yakuni va baqo sari intilish, ya’ni yo‘q bo‘lib, borlikning asl ma’nosini topish darajasidir. Yusuf Saryomiyning “Ey do‘st” radifli g‘azali — o‘zbek mumtoz she’riyati doirasida tasavvufiy iztirob, ishqiy fano, va ilohiy yor yo‘lidagi sadoqat timsoli sifatida ajralib turadi. Har bir baytda istioraviy ifoda, tashbih, tajnis, murojaat, tajohuli orifona, mubolag‘a kabi badiiy vositalar vositasida chuqur ma’no ochiladi. G‘azaldagi “do‘st” — faqatgina dunyoviy mahbub emas, balki Haqq, murshid, ma’naviy yor timsolida tasvirlangan. Shoir ichki iztirob, ishqiy jazba va ruhan halokat yoqasida turgan holatini shoirona badiiyatda ifodalaydi. Bu g‘azal tahlili orqali Yusuf Saryomiy nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kunning ham ma’naviy izlanishda yurgan insonlariga ruhiy oziqa bera olishini isbotlaydi.

Xulosa. Yusuf Saryomiyning “Ey do‘st” g‘azali — o‘zbek mumtoz she’riyati an’analarini chuqur tasavvufiy falsafa bilan boyitgan asardir. G‘azalda bandaning ilohiy ishqqa bo‘lgan intilishi, ma’shuqqa sadoqat, ruhiy iztirob va rahmatga chanqoqlik badiiy ifoda etilgan. Shoir “Ey do‘st” nidosi orqali oddiy ma’shuq emas, balki ilohiy zotga murojaat qilgan holda, tasavvufdagi fano va baqo maqomlarini obrazli ifoda etadi. Har bir baytda badiiy san’at vositalari — istiora, tashbih, tajnis va murojaat orqali g‘oyat nozik.





ruhiy kechinmalar tasvirlanadi. Mazkur tahlil, shoirming ilohiy ishq yo‘lidagi yuksak ruhiy izlanishlarini anglashga xizmat qilib, bugungi o‘quvchiga ham tasavvufiy g‘oyalarni tushunishda muhim manba bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Тожибоева М. Бир гулгунча девон. – Андикон: Ҳаёт нашриёти, 2023.
2. Юсуф Сарёмий. Девон. – Андикон вилояти тарих ва маданият давлат музейи, хужжат рақами: №128.
- 3.Исмоилов У. Мумтоз адабиётда илоҳий ишқ мавзуси. – Тошкент: Фан, 2010.
4. Фаниева Ш. Ўзбек классик поэзиясида газал жанри. – Тошкент: Фан, 1991.

